

Umida USMONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi

NASRIY ASAR TAHLILIDA SAVOL VA TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada nasriy asarlarni o'qitishda ratsional fikrlar berishga qaratilgan savol va topshiriqlar tavsiya etilgan. Tajriba savol va topshiriqlar o'quvchilarni asarning muammo, mavzu, konflikt, g'oyalarni konkret ifodalashiga, obraz va syujetni qiyoslash orqali g'oyalarni to'laqonli anglashiga yordam berishini ko'rsatgan. Asar xususida aniq, to'g'ri, to'laqonli xulosalar taqdim etish uchun matn va kontekstni integratsiyalash bilan birga xulosalarni borliqqa tatbiq etish lozim.

Kalit so'zlar: *nasriy asar tahlili, savol-topshiriq, yuqori kognitiv jarayonlar, tanqidiy fikrlash, kontekstual tahlil, obraz, syujet, muammo, mavzu*

Аннотация: в статье рекомендованы вопросы и задачи направленные на предоставление рациональных идей в работах обучения. Опыт показал что вопросы и задания помогают работе теме конфликту идеям и сравнению идей и сюжета сравнивая идеи. Чтобы представить текст и контекст чтобы представить работу ясных правильно полных выводов необходимо вместе применить выводы вместе.

Ключевые слова: *анализ работы, вопросов, высоких когнитивных процессов, критического мышления, концептуального анализа, изобретения, сюжета, изображения, темы.*

Annotation: the article suggests questions and tasks aimed at promoting rational thinking in teaching prose works. The experience shows that these questions and tasks help students to concretely express the problems, themes, conflicts, and ideas of the work, and assist them in fully understanding the ideas through comparing characters and plot. To provide clear, accurate, and comprehensive conclusions about the work, it is necessary to integrate the text and context, while also applying the conclusions to reality.

Key words: *prose analysis, questions-tasks, higher cognitive processes, critical thinking, contextual analysis, character, plot, problem, theme.*

Kirish. Adabiyot darslarida nasriy asarlar tahlili sifatini oshirish uchun kerakli, maqsadli savol-topshiriqlardan foydalanish zarur. Darsda tahlil savol-topshiriqlar orqali amalga oshiriladi, zero turli usul, metod, texnologiyalar asosini savol-topshiriqlar tashkil etadi. Ona tili va adabiyot ta'limi yo'nalishi talabalarini kuzatish natijasida guvoh bo'ldikki, aksar holda tahlillashga qaratilgan savollarga berilgan javoblar — irratsional fikrlash mahsuli, hissiyotlar hosilasi. Javoblar badiiy matn, kontekst chuqur o'rganilmasdan, dalillarga asoslanmagan holda beriladi. Shaxsiy fikr va bilim orasidagi farq ajratilmaydi. Muallif hayoti, obraz, syujet, she'rjami yodlatish va asoslanmagan shaxsiy fikrlarni so'rashdangina iborat adabiyot darslari mazmunini o'zgartirish, hissiy idrok bilan birgalikda o'quvchilarning yuqori kognitiv jarayonlarini yaxshilashga e'tibor qaratish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. San'at ta'limi xususida tadqiqot olib borgan Eliot Eisner san'atni o'rgatish faktlar bilan cheklanib qolmasligi kerakligini, san'at boshqa fanlarda osonlik bilan erishilmaydigan kognitiv rivojlanishning nozik va murakkab shakllarini qo'llab-quvvatlashini yozadi va tadqiqotini badiiy ta'lim ijodkorlikni, hissiy idrokni va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, deya xulosalaydi. [Eileen Harris: 1-2] M. Adler va Van Doren kitob o'qishni to'rt bosqichga ajratadi: boshlang'ich o'qish — ma'lumotni o'qiy olish; to'g'ridan to'g'ri (yuzaki) o'qish — ma'lum vaqt ichida

matnni o'qib maksimal foyda olishga urinish; analitik o'qish — chaynash va hazm qilish; sintopik o'qish — bir necha manbani qiyoslab o'qish [M. Adler va Van Doren: 3,4,6-9,20-boblar] "Mualliflar ta'kidlashicha, maktabda didaktik usullarni (ma'ruza, tayyor ma'lumot) haddan tashqari ko'p qo'llaganimiz kabi, o'qishning yuqori bosqichlari — analitik va sintopik o'qishni ham ko'pincha yetaricha o'rgatmaymiz. Aynan shu bosqichlar barcha fanlar uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini talab qiladi. O'qish passiv ham, faol ham bo'lishi mumkin; qanchalik faol bo'lsa, shunchalik yaxshi. Faol o'qish savollar berishni o'z ichiga oladi. Adler va Van Doren fikricha, "xabardor bo'lish" shunchaki biror narsa mavjudligini bilishdir; "ziyoli bo'lish" esa, bu narsaning mazmuni — nega bunday ekani va boshqa faktlar bilan qanday bog'liq ekanini tushunishni bildiradi. Demak, ziyolilikka erishish uchun matnni tanqidiy o'qish, ya'ni o'qish paytida tanqidiy fikrlash zarur. [Walsh, Debbie; Paul, Richard W: 42] Kathryn S. McCarthy matnlarni chuqur tahlil qilish kontekstual ma'nolar anglanishi, kognitiv jarayonlarni faollashtirishi [Kathryn S. McCarthy: 99-128] Merja Polvinen tahlilda fakt va dalillarga asoslangan yondashuv tanqidiy fikrlashga o'rgatishi, [Merja Polvinen: 1-5] D. Ashurova badiiy matn tahlili muallifning dunyoqarashi, individual dunyo manzarasi, estetik qarashlari, axloqiy qadriyatlar aks etgan chuqur qatlamni ochish [D. Ashurova: 559] ekanligi haqida yozadi va Mortimer Adler va Charles

Van Dorenning, matnni emotsiyalarga emas, aynan dalil va faktlarga asoslangan tahliliy yondashuvi orqali o'qish kerakligi haqidagi fikrlarini qo'llab-quvvatlaydi. "Aql – madaniy yutuq shakli. Miya – biologik resurs. Ta'lim, ijtimoiylashuv va madaniy moslashuvning vazifasi miyani aqlga aylantirishdir. Aql insonlar hayot davomida turli tajribalarni egallashi natijasida shakllanadi va bu tajribalar orqali fikrlashni o'rganadi. Maktablarda bu tajriba ko'plab omillar ta'sirida amalga oshadi, ulardan ikkita eng muhim omil – o'quv dasturi va ta'lim amaliyotlari. O'quv dasturi va ta'lim jarayoni aql yaratish jarayonining markazida turadi. Shu ma'noda, o'quv dasturi va uni yo'naltiruvchi ta'lim usullari aqlni o'zgartiruvchi vositalardir". [Elliot Eisner: 341] Elliot Eisner tadqiqotidan kelib chiqsak, san'at ta'limi – tajriba shakllarini o'rganish, tahlillash – turli fikrlash turlarini [Anthony Metivier: 1-10] rivojlantirish uchun eng yaxshi jarayon. Badiiy matnni tahlillashda o'quvchidan tizimli tartibda muammo, mavzu, konflikt, syujet va obrazlarni konkret so'z, jumalalarda ifodalash, badiiy matn, muallif dunyoqarashi haqidagi ma'lumotlar, kontekst, boshqa sohalar (ayniqsa, san'at), amaliy tajribalardan aniq faktlarni integratsiyalab izohlash; tugal xulosa, g'oyani idrok etish so'ralishi o'quvchidan keng ko'lamli ma'lumotlar, tajriba o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash, diqqat, kuzatuvchanlikni talab etadi, talabning davomiyligi o'quvchining yuqori kognitiv jarayonlari sifatini oshiradi. Debbie Walsh va Richard W Paul o'qishni tanqidiy tafakkur bilan bog'lash — bolalarni haqiqiy "umrboqiy o'quvchilar"ga aylantirishning eng muhim yo'li ekanligini ta'kidlaydi va analitik o'qish uchun topshiriqlar namunasini keltiradi: "Analitik o'qishning ayrim "qoidalar" :

1. Muallif hal qilishga urinayotgan muammoni aniqlash.
2. Muallif ishlatgan asosiy atamalar va kalit so'zlarni talqin qilish.
3. Muallifning dalillar zanjiri hamda umumiy nuqtayi nazarini aniqlash.
4. Bilim bilan shaxsiy fikrni ajrata olish va tanqidiy xulosalar uchun asosli sabablar keltirish.
5. Muallifning bilimsizligi, noto'g'ri ma'lumotlari, mantiqsizligi yoki to'liq bo'lmagan joylarini ko'rsatish.
6. Muallif qaysi muammolarni hal qilganini, qaysilarini hal qilmaganini aniqlash" [Walsh, Debbie; Paul, Richard W: 43].

E. Eisner esa hissiyotlar va ijodkorlikni tarbiyalashga e'tibor qaratadi, ijodiy tafakkurni tarbiyalash san'at ta'limi vazifasi ekanligini uqtirib shunday deydi: "Yozuvchi tasavvur bilan boshlaydi va so'zlarni yaratadi. O'quvchi yozuvchining so'zlaridan boshlaydi va tasavvur bilan tugatadi. His-tuyg'ular tasavvurni oziqlantiradi, tasavvur esa ifoda uchun mazmun yaratadi. Biz ushbu ifodani tajriba sifatida qabul qilamiz va shu orqali tasavvur hosil qilamiz. San'at, yaxshi o'rgatilganda, hissiyotlarni shakllantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish

uchun asosiy vositadir". Demak, tahlilda "quruq" yodlashni mavhum, dalillanmagan shaxsiy fikrlarni so'rashni ko'zda tutuvchi savol-topshiriqlardan voz kechish analitik, kritik, konvergent, divergent, reflektiv, lateral, emotsional, abstrakt, ijodiy fikrlash turlarini tarbiyalovchi savol va topshiriqlar tuzish lozim. Topshiriqlar muvaffaqiyatli o'rganishni osonlashtirish uchun o'quv jarayonlarini faollashtirish va nazorat qilishga xizmat qiladi. Ular o'quv materialiga nisbatan reaksiyalarni rag'batlantiradi va shu bilan o'quvchilarni mavzuga intensiv ravishda jalb qilishga undaydi. [Richter S.] Topshiriq bilim olish, mashg'ulotni tashkil etish va o'zlashtirilgan bilim, ko'nikmalarni baholashi, savol esa o'quvchini fikrlashga undashi va sinab ko'rish uchun qo'llanishi lozim. [G'. Hamroyev: 17] Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda nasriy asarlarni o'qitishda quyidagi savol va topshiriqlardan foydalanishni tavsiya etamiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

1. Eduard de Bononing lateral fikrlashga oid nazariyasi orqali muammo, mavzu, g'oyani aniqlash samarali. Topshiriqlar olti guruhga beriladi:

Bir-biriga aloqador obrazlarni toping va quyidagi savollarga javob bering.

Oq shlyapa: Obrazlarni birlashtiruvchi jihat bormi? Ularni nima baxtsiz yoki baxtli qiladi? Obrazlarning maqsadlari bormi? Maqsadlariga erishish yo'lida to'siqlarga duch kelishdimi? (Muammoni aniqlash) Har bir muammoni tushuning, sabablarini aniq dalillar, kontekst, tajribalaringiz asosida izohlang. Obrazlar tushgan muammoli vaziyat qaysi mavzu doirasida yuz berdi? (mavzuni aniqlash)

Qizil shlyapa: Mavjud muammoga turli nuqtalardan yondashing. Obrazlarning muammo va uning oqibatiga munosabati qanday? Obrazning muammo tufayli qilgan harakatlari sabablarini psixologik kontekst asosida izohlang.

Qora shlyapa: Obrazlarning harakatlari qanchalik to'g'ri? Muallif xolismi yoki irratsional. Sabab, muammo, oqibat zanjiri mantiqan to'g'ri yozilganmi? Integratsiya qilayotgan ma'lumotlaringiz badiiy matnga aloqador ekanligiga aminmisiz? Konkret fikrlashgagina tayanib qolmadingizmi? Badiiy asarda obrazlar qanday kontekstni ramzlashtirayotganini to'g'ri aniqladingizmi?

Sariq shlyapa: Obrazlar qanday yo'l tutganda zarar ko'rmas edi, vaziyat uning foydasiga bo'lardi? Oqibatlardan qat'iy nazar personaj o'rnida yashab, yakunda qanday foyda olish mumkin? Asar siz va jamiyatingizga qanday foyda bera oladi?

Yashil shlyapa: Oqibatlarni keng ko'lamli muhokama qiling. Muammolarni va oqibatlarni bartaraf etish yo'llarini kontekstdan aynan shu kabi muammolarning oqibatlari va yechimlarini o'rganish orqali taqdim eting. Asarga bog'liq bo'lmagan detal, tushunchalarni asarga bog'lashga urinish orqali asar muammosi uchun yangi yechim o'ylab ko'ring. Butunlay boshqa mavzu va

g'oyaga asoslangan boshqa asar qahramoni ushbu asarda qanday harakat qilgan bo'lar edi? (g'oyalarni aniqlash)

Moviy shlyapa: Taklif etgan yechimlaringizni (mazzamunga muvofiq psixologik, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda qilingan ilmiy tadqiqotlar asosida) amaliy tajriba natijalari orqali tekshirib ko'ring.

2. Walsh Debbie va Paul Richardning tanqidiy tafakkumi o'qish orqali rivojlantirish nazariyasiga ko'ra quyidagi savol-topshiriqlarni berish mumkin:

– Muallif dunyoqarash shaklini o'rganing (muallif bolaligi, yashash muhiti, ta'limi, dunyoni anglash tarzi, qanday muammolar uni bezovta qilishi, faoliyatidagi umumlashma fikrlari).

– Asardagi joy, ism, nom, syujetlarning asarga kirib kelish tarixini o'rganing.

– Asarda aks etgan zamon va makon kontekst bilan integratsiya qilinganda mantiqiylik buzilmaganmi? To'qima va hayot mantiqan mutanosibmi? Muallifning nuqtayi nazarini isbotlovchi dalillari to'g'rimi? Muallif qachon faktlarni, qachon shaxsiy fikrini bildirgan? Ular orasidagi farqni aniqlang. Muallif qanday muammolarni hal qilgan deb hisoblaysiz? Qaysilari ochiq qolgan? Siz ularni qanday davom ettirar edingiz?

3. Ratsional fikrlash sifatini yaxshilovchi quyidagi savol va topshiriqlar syujet va obrazni tushunishga qaratilgan:

Har bir obrazga tegishli syujet xaritasini ishlab chiqing, bir obraz syujet liniyasini umumiy syujetdan alohida tasavvur qiling.

– Bir obrazga tegishli syujetni boshlang'ich nuqtadan yakunga qadar eslang. Faqat uning harakatlarini kuzating, gaplariga e'tibor bering. Quyidagi savollar asosida obrazning syujet xaritasini rangli qalamlar yordamida chizing. U qachon, qayerda, qanday harakat qildi? Kimlar bilan uchrashdi? Nimalarni o'yladi? Qanday qarorlar qabul qildi? Uning hayotiga kimlar ta'sir qildi? Eng muhim voqealar qachon, qanday sodir bo'ldi?

– Bir nechta obrazning syujet xaritasini qiyoslang. Obrazlar bir-biriga ta'sir qildimi? Nima uchun?

– Obraz orqali nima haqida gapirildi? Obrazlar orqali aytilgan fikrlarni solishtiring. Obraz fikrlarini bugungi kun uchun ham muhim deb hisoblaysizmi? Nima uchun?

4. Obrazni aniq tizim asosida o'rganish ishonchli xulosalar chiqarishga yordam beradi. Bir muammo doirasidagi bir nechta obrazni (turli asarlardan bo'lishi ham mumkin) quyidagi tartibda tahlil qiling, farq va o'xshashliklarni aniqlang, umumiy xulosalar chiqaring.

– Voqealarni harakatga keltirgan, diqqat markazdagi, o'zgalar taqdiriga ta'sir eta oladigan obrazni toping.

1. Obraz bilan tanishish. Hikoyada obrazning qanday roli bor? Bu katta rolmi yoki kichik? Obraz kim bilan ko'proq muloqot qiladi? Obraz uchun kim muhim? Obraz nimalarga ega? Personajning muhit bilan qanday aloqasi bor?

2. Obrazning dastlabki kirish joyini toping. (Obraz tabiati va turmush tarziga xos jihatlarni aniqlanadi): Birinchi marta muallif personajni qanday tanishtiradi? Birinchi tasvirda u qanday ishlar qildi?

3. Obraz mavjud sahnalarni ko'rib chiqing va muhim qismlarni ajrating.

4. Obrazni tasvirlash uchun qayta-qayta ishlatilgan ta'riflarni toping. Takrorlanuvchi ta'riflar personaj ruhiyatini tasvirlaydimi? Obraz xatti-harakatlari sabablari asarda mavjudmi?

5. Obrazning kelib chiqishi, turmush tarzi, hozirgi holati haqida ma'lumot to'plash uchun uning nutqini o'rganing. U o'qimishlimi? Uning so'zlash uslubi muhitga mosmi? U boshqalarga o'xshamaydigan nutqqa egami?

6. Obraz xatti-harakatlari va uning boshqalarga ta'sirini o'rganing. Obrazning xulq-atvori qanday? U donomi, yetukmi? U xudbinmi, ehtiyotkormi? U boshqalarga ta'sir qila oladimi?

7. Obraz motivatsiyasini aniqlang. Obraz muayyan tarzda harakat qilayotgani yoki o'ylayotgani asoslarini toping: Muallif obraz o'tmishi haqida biror-bir narsa berganmi? Uning yaxshi niyatlari bormi?

8. Obrazni turli kontekstlarda ko'rib chiqing.

9. Obrazga muallifning munosabatini o'rganing. Obraz mustaqilmi yoki u yozuvchi izmidagi qo'g'irchoqmi? Obrazga yozuvchi munosabati qanday? (Muallif sizni mo'ljallagan talqiniga yo'llayotgan bo'lishi mumkin)

10. Javoblaringiz asosida umumiy xulosa chiqaring.

5. G'oyani konkret mushohada etishga qaratilgan savol va topshiriqlar xulosalarga kelish uchun asoslarga ega bo'lishni talab etadi:

– Asarni bir nechta jumla bilan tushuntiring. Asarni boshqalarga qanday tushuntirasiz? Sarlavha, kirish qismi, kulminatsiya, yakuniy qismlarni bog'liqlikda ko'rib chiqing. Sarlavha va kirish qismidan anglangan ma'no bilan asarga qayta nazar tashlang. Takrorlangan fikrlarni toping. Hikoyachi tilidan berilgan mulohazalarni o'qing. Tasvirlanayotgan mavzuning eng muhim fikrini bir jumla bilan ifodalang. Jumlani izohlang. Bu g'oya vaqt o'tsa, ahamiyatini yo'qotadimi? Bu g'oya butun dunyo insonlari hayotiga taalluqli bo'la oladimi?

Tahlil va natijalar. Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetining Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti O'zbek adabiyoti fani doirasida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Ikkinchi bosqich to'rt guruhda roman tahlili o'tkazildi. Ikki guruhda talabalarning asar yuzasidan shaxsiy tahlillari so'raldi, qolgan ikki guruhda esa yuqoridagi savol-topshiriqlar asosida dars olib borildi. Dastlabki ikki guruh talabalarining 80 foizi aniq dalillarga tayanmagan holda umumiy xulosalar berdi. Fikrlarini isbotlamadi, "Men shunday tushundim" tarzidagi jumlamani keltirdi yoki intiutsiya va hissiyotlarga asoslangan izohlar taqdim etdi. Muammo, mavzu, konflikt va g'oyalarni konkret tarzda aytib bera

olmadi. Obraz va syujetni tushunishdagi muammolar tufayli ba'zi g'oyalargina aytili. Keyingi ikki guruhda olib borilgan mashg'ulotda savol va topshiriqlar asosida 80 foiz talabalar muammo, mavzu, konflikt va g'oyalarni aniq ifodalay oldi, fikrlar uchun matn, kontekstdan dalillar keltirdi. Obraz va syujetni chuqurroq tushunish barcha mavzulardan kelib chiqadigan g'oyalarni aniqlashga yordam berdi.

Xulosa va takliflar. Adabiyot yoki biron-bir aniq matn haqida yozilayotganda (tahlil qilayotganda) matndan aniq parchalarni dalil sifatida taklif qilish,

muhokamani kuchaytirishi mumkinligini o'quvchilarga eslatib turish lozim.[3] O'quvchilardan matn bilan ishlash talab etilsa, savol va topshiriqlar natija beradi. Nasriy asarlarni o'qitishda muammo, mavzu, konfliktni qisqa, aniq ifodalashga qaratilgan, obraz, syujetni qiyoslash orqali tushunishga yordam beruvchi savol va topshiriqlardan foydalanish asar g'oyalarni to'laonli anglashga yordam beradi. Demak, aniq, to'g'ri xulosalar chiqara olish uchun savol va topshiriqlar bilan ishlashda matn, kontekstga tayanish, shaxsiy tajribalarni faollashtirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eileen Harris. Lessons from the Arts: A Review of The Arts and the Creation of Mind by Elliot Eisner //Journal of the Canadian Association for Curriculum Studies, Volume 1, Number 2, Fall 2003 Page: 6
2. Adler, Mortimer and Van Doren, Charles How to Read a Book. – New York. Simon and Schuster, 1972 Page: 440
3. Walsh, Debbie and Paul, Richard W. The Goal of Critical Tinking from Educational Ideal to Educational Reality. Washington. American Federation of Teachers, 2001 Page: 67
4. Kathryn S. McCarthy. Reading beyond the lines: A critical review of cognitive approaches to literary interpretation and comprehension//Scientific Study of Literature Year: 2015 Volume: 5 Issue: 1 Page: 99-128
5. Karin Kukkonen, Anežka Kuzmičová, Steen Ledet Christiansen and Merja Polvinen The place of the cognitive in literary studies // Kukkonen et al., Cogent Arts & Humanities (2019), 6: 1691841 <https://doi.org/10.1080/23311983.2019.169184> Page:1-5
6. Ashurova D. COGNITIVE APPROACH TO LITERARY TEXT INTERPRETATION Bulletin of Science and Practice/ Page: 557-561 <https://www.bulletennauki.com>
7. Elliot W. Eisner. The Arts and the Creation of Mind Author: Source: Language Arts, Vol. 80, No. 5, Imagination and the Arts, May 2003Page:340-344 // Published by: National Council of Teachers of EnglishStable <http://www.jstor.org/stable/41483337>
8. Anthony Metivier. The 10 Main Types Of Thinking(And How to Use Them Better). Magnetic Memory Method //https://www.magneticmemorymethod.com/types-of-thinking/ 4.12. 2024
9. Richter, S. Learning Tasks. In: Seel, N.M. (eds) Encyclopedia of the Sciences of Learning. Springer, Boston, MA.,2012. Pages 1975-1979 https://doi.org/10.1007/978-1-4419-1428-6_342
10. Hamroyev G'. Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish. /Ped. fan. dok. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. – T., 2022. 33-bet.
11. De Bono Edward. The use of lateral thinking– London: Cape, 1967 y. 157 p
12. Literary Analysis Guide. Goshen Collegw.// <https://www.goshen.edu/academics/english/literary-analysis-guide/> .
- 13.How to Write a Character Comparison. eNotes.com.// <https://www.enotes.com/topics/how-write-character-comparison>.